

**XIII–XIV ASRLARDA TURONDA IJTIMOIIY HAYOTNING BIR BO‘G‘INI —
TIBBIYOT TARIXIGA QISQACHA QARASH**

Shamsidinov Zafar Ismoilovich,
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Tarix instituti, tayanch doktoranti
E-mail: zafarshams_94@umail.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIII–XIV asrlarda Turon hududidagi o‘troq aholining yuksak tibbiy madaniyati, shifoxonalar (moristonlar) faoliyati va mahalliy tabiblarning ilmiy merosi qisqacha tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida mintaqadagi an’anaviy musulmon tibbiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, boshqa xalqlar (xitoy, ko‘chmanchi) tibbiy an’analari bilan o‘zaro aloqalari hamda Turonlik olimlarning Sharq tibbiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi manbalar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, o‘troq aholi vakillarining nazariy bilimlar bazasi va ularning mintaqaviy tibbiyotni tizimlashtirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turon, o‘troq madaniyat, moriston, Sahyuniy, islom tibbiyoti, Tanksuqnama, tibbiy ta’lim, etnomadaniy integratsiya, Rashididdin.

Аннотация. в данной статье комплексно исследуются высокая медицинская культура оседлого населения, деятельность больниц (маристан) и научное наследие местных врачей в регионе Туран в XIII–XIV веках. В ходе исследования на основе источников анализируются особенности традиционной мусульманской медицины региона, ее взаимодействие с медицинскими традициями других народов (китайских, кочевых) и вклад ученых Турана в развитие восточной медицины. Особое внимание уделено теоретической базе оседлого населения и его роли в систематизации региональной медицины.

Ключевые слова: Туран, оседлая культура, маристан, Сахйуни, исламская медицина, Танксук-намэ, медицинское образование, этнокультурная интеграция, Рашид-ад-дин.

Abstract. this article comprehensively explores the high medical culture of the sedentary population, the activities of hospitals (maristan), and the scientific heritage of local physicians in the Turan region during the 13th–14th centuries. Based on historical sources, the research analyzes the characteristics of traditional Islamic medicine in the region, its interaction with the medical traditions of other peoples (Chinese, nomadic), and the contribution of Turan scholars to the development of Eastern medicine. Particular emphasis is placed on the theoretical knowledge base of the sedentary population and its role in systematizing regional medicine.

Keywords: Turan, sedentary culture, moriston, Sahyuni, Islamic medicine, Tanksuq-nameh, medical education, ethnocultural integration, Rashid-al-Din.

Kirish. Tarixiy ong va milliy xotirani tiklash — global jarayonlar davrida har bir xalqning o‘zligini anglashida muhim poydevor hisoblanadi. O‘zbekiston, umuman Turon hududi qadimdan ilm-fan, xususan, tibbiyot rivojlangan markazlardan biri bo‘lib kelgan. XIII–XIV asrlar Turon hududi uchun nafaqat siyosiy o‘zgarishlar, balki turli madaniyatlar to‘qnashgan va o‘zaro boyigan davr bo‘ldi. Ushbu davr tibbiyotini o‘rganishdagi asosiy dolzarb muammo — mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davrda o‘troq aholining yuksak intellektual salohiyatini va ularning tashqi madaniyatlar bilan muloqotda yetakchi rol o‘ynaganligini ko‘rsatib berishdir. Turon o‘zining ilmiy markazlari va “moriston” deb ataluvchi shifoxonalari bilan mintaqada tibbiy

bilimlarning asosiy o‘chog‘i bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqotda o‘troq aholi tibbiyoti va ko‘chmanchi xalqlarning an‘analari o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, xitoy va islom tabobati integratsiyasi tahlil qilinadi.

Turon tibbiyotiga oid ma‘lumotlarni qisman bo‘lsa-da, fors tilidagi Rashididdin Hamadoniyning *تتکسوقنامه* “Tanksuqnoma” (“Nodir kitob”) [1], Ibn Battutaning arab tilidagi *الرحلة* “ar-Rihla” [2] (“Sayohatnoma”) hamda *元史* “Yuan shi” (“Yuan sulolasi tarixi”) [3] kabi yozma manbalardan olishimiz mumkin. Turonlik olimlarning qo‘shni o‘lkalarga ta‘siri va tashqi tibbiy bilimlarni o‘zlashtirishdagi selektiv yondashuvi ilmiy jihatdan asoslandi.

Muhokama va natijalar. XIII–XIV asrlarda Turon hududida o‘troq aholining tibbiy madaniyati o‘ta yuksak darajada bo‘lgan. Bu davrda mintaqadagi shaharlarda kasalxonalar, ya‘ni “moriston”lar faoliyat yuritgan. Ushbu muassasalar nafaqat bemorlarni davolash bilan shug‘ullangan, balki talabalarga chuqur tibbiy bilimlar beruvchi ta‘lim markazlari vazifasini ham bajargan. Bunday moristondan biri Xorazmda joylashgan bo‘lib, uni mashhur shifokor Sahyuniy boshqargan [2]. Bu fakt Turonda o‘troq aholi orasida tibbiyot tizimli ravishda tashkil etilganini, shifokorlar tayyorlashning o‘ziga xos maktabi mavjudligini tasdiqlaydi. O‘troq aholi tibbiyoti asosan nazariy bilimlarga, inson anatomiyasi va fiziologiyasiga asoslangan bo‘lib, bu uni ko‘chmanchi xalqlar amaliyotidan tubdan ajratib turgan.

Turonlik shifokorlar o‘z davrining eng nufuzli mutaxassisleri hisoblangan. Hatto mo‘g‘ul hukmdorlari ham ularning bilimiga katta ehtiyoj sezganlar va ularni Qoraqurum hamda Xitoyga olib ketishgan. Masalan, Chig‘atoyning Majididdin ismli musulmon tabibi bo‘lgani manbalarda qayd etilgan [4]. Aynan Turonlik olimlarning xizmati tufayli islom olamida keng ma‘lum bo‘lgan kasalliklarning olti tashqi omili haqidagi ta‘limot (*lyu si* 六氣) Xitoyga to‘rt omil (*si si* 四氣) — shamol, sovuq, issiqlik hamda namlik tushunchasi ko‘rinishida kirib bordi. Bu o‘troq Turon madaniyatining intellektual salohiyati nafaqat mintaqada ichida, balki butun Osiyo qit‘asida yetakchi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mo‘g‘ullarning g‘arbiy yurishlari natijasida xitoy tabobati ham Turon va G‘arbiy Osiyoga kirib kela boshladi. Biroq, bu bilimlarni qabul qilishda o‘troq aholi vakillari, xususan, Rashididdin kabi olimlar katta rol o‘ynadi. Rashididdin o‘z faoliyatini shifokor sifatida boshlagan va uning tibbiyotga bo‘lgan qiziqishi asarlarida yaqqol aks etgan. Uning “Tanksuxnoma” asari xitoy tibbiyoti sirlarini o‘zida saqlagan muhim manbadir. Ushbu kitobda o‘troq aholi vakillari, xususan eronliklar va turonliklar uchun ma‘lumotlarni o‘zida taqdim etadi [1].

Turon hududida an‘anaviy musulmon tibbiyoti bilan bir qatorda ko‘chmanchi xalqlarning tibbiy madaniyati ham mavjud edi. Biroq, ularning yondashuvlari tubdan

farq qilgan. Asosan amaliyotga (“emchi”lik va shomonlik) asoslangan. Shomonlar davolashda ruhiy kuchlar va seyr-joduga tayanishgan. Ularda nazariy bilimlar mavjud bo‘lmagan, lekin harbiy hayot tufayli jarrohlik va suyak solish (“bariachi”) rivojlangan.

Nazariy asoslarga ega bo‘lib, moristonlarda o‘qitilgan. O‘troq dunyo bilan aloqalarning kuchayishi natijasida shomonlarning roli pasayib, o‘troq tibbiyotning nufuzi oshib borgan. Ko‘chmanchilar orasida bod (podagra) kasalligi keng tarqalgan bo‘lib, uni hayvon qorni orqali davolashga urinishgan. Shuningdek, ular yangi so‘yilgan hayvon a‘zolarining yomon qonni so‘rib olishiga ishonishgan. Masalan, “Yuan shi” manbasida og‘ir bemorni issiq ho‘kiz qornida yotqizish orqali butkul tuzatilgani haqida hikoya qilinadi [3].

Xulosa. Umuman olganda XIII–XIV asrlarda Turon o‘troq aholisi tibbiyotni moristonlar darajasida tashkil etgan. Bu muassasalar nafaqat shifo maskani, balki ilmiy kadrlar tayyorlovchi tizimli ta’lim markazlari bo‘lgan.

Rashididdin va boshqa olimlar Xitoy tibbiyotining eng samarali jihatlarini saralab olib, ularni mintaqaviy tibbiyot madaniyati bilan uyg‘unlashtirganlar. Bu jarayonda albatta turonlik tabiblar o‘zlarining nazariy bilimlarini (olti omil ta’limoti) Xitoy kabi uzoq o‘lkalarga yoyishgan va u yerda katta hurmatga sazovor bo‘lishgan.

Ko‘chmanchi aholining amaliy tibbiyoti va shomonlik amaliyotlari o‘troq aholining nazariy va ilmiy asoslangan tabobati ta’sirida o‘zining seyrli-diniy xarakterini yo‘qotib, ratsionallashtirib borgan. Xulosa qilib aytganda, XIII–XIV asrlardagi Turon tibbiyoti — bu o‘zining mustahkam milliy poydevoriga ega bo‘lgan va global ilmiy almashinuvlarda faol ishtirok etgan yuksak madaniyat mahsulidir. Ushbu tarixiy tajriba Turonning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. تانكسوق نامە رشیدی
2. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва Ўрта Осиё тарихи. Т., 1993.
3. 元史 / 李修生分史主編. 2004.
4. Бартольд В.В. Сочинения. Т. I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М., 1963.
5. Lane G. Daily Life in the Mongol Empire (Daily Life through History). XXIV. Westport, Connecticut: The Greenwood Press, 2006.